



O'ZBEK MILLIY XONANDALIGINI O'RGANISH VA AMALIYOT JARAYONIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR.

Najmiddinova Mahliyo O'tkir qizi

Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI 2-bosqich magistranti.

Ilmiy rahbar: Azizullah Aral,

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Anotatsiya: Ushbu maqolada O'zbek milliy xonadaliği, o'rganish va o'rgatish masalalari, ustoz-shogird an'anasi, zamonaviylashuv haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Milliy xonandalik, ustoz- shogird an'anasi, ijro mahorati va o'rgatish jarayonlari.

O'zbek milliy musiqa san'ati qadim-qadimdan mavjud bo'lib, hozirgacha takomillashib boyib rivojlanishda davom etmoqda. O'zbek milliy xonandaligi –bu asrlar davomida shakllangan og'zaki va yozma an'analarga tayangan vokal ijrochilik san'ati desak mubolag'a bo'lmaydi va bunga yana qo'shimcha qilib, xalqlarning musiqiy tafakkuri, ma'naviy dunyosini o'zida mujassam etgan san'atdur. Bugungi kunda milliy xonandalikni o'rganish nafaqat ijrochilik mahoratini shakllantirish, balki milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Necha necha darg'a ustozlarimiz ushbu sohada umurlarini bag'ishlagan holatda soha fidoiylariga aylanishgan va ushbu an'ana davom etib kelmoqda. Barchamizga ma'lumki, har bir yangi ashula yoki qo'shiq yaralishidan avval uning kuyi yaratilgan bo'ladi. Ushbu sohada sozandalikning va musiqiy yaratuvchanlik qobilyati bo'lgan ijrochilarning o'rni beqiyosdir. Kuy, she'r yoki g'azal, ijro bular hammasi bir-biriga bog'liq atamalar bo'lib, barchasi mahorat ila birlashgan holatda bir yetuk asar yuzaga keladi. Milliy xonandalik san'atini o'rganishda har bir xalqning o'z yo'nalishlari va an'analari mavjud. Ushbu sohada ya'ni an'anaviy



xonandalikni o'rganishda ustoz-shogird an'anasi katta o'rin tutadi. Ushbu an'ana o'zi nima va u qanday amalga tadbiiq qilinadi degan savollar tug'ulishi tabiiy. Milliy musiqamizda ustoz-shogird an'anasi muqaddas an'adur hamma ham ushbu an'anani davom ettirgan hisoblanavermaydi ya'ni, buni faqat zukko va ustozini qattiq hurmat qiladigan, ilmga chanqoq, ustozini har bir so'zini qonun deb biladigan, tartib-qoidaga amal qila oladigan, hattoki ustozining yurush turishidanda andoza oladigan shogirdgina ushbu an'anaga amal qilgan va davom ettirgan sanaladi. Qadimda farzandini bir hunar yoki ilm o'rganishini hohlagan ota-ona usha farzandini biror bir yetuk ilm ahli yoki hunarmandning uyiga olib borib berganlar. Ustozining uyida nafaqat ilm yoki hunar o'rganish bilan birga uy yumushlariga qarashgan, ustozining odobidan yurush-turishidan o'rnak olgan va shu tariqa shogirdlar kamolga yetgan.

O'z ustida muntazam ishlashni kanda qilmay yuksak ijodiy martabalarga erishganlardan o'rnak olish naqadar yaxshi.

O'ziga xos ijodiy maktab yaratishga erishgan ulkan musiqa san'ati ustozlari:

Hoji abadulaziz Abdurasulov, Hofiz, sozanda (tambur, dutor) bastakor, ustoz;

Akademik Yunus Rajabiy, alloma, Hofiz, sozanda (nay, dutor), bastakor, ustoz;

Fahriddin Sodiqov, sozanda (chang, dutor) bastakor, ustoz;

Turg'un Alimatov, sozanda (tambur, dutor, sato) bastakor, ustoz;

Fattohxon Mamadaliyev, Hofiz, sozanda (tambur g'ijjak, dutor) bastakor, ustoz.

Ishoq Rajabov, sharqshunos, manbaashunos, maqomshunos olim, sozanda (dutor, tambur) ustoz.¹

Ushbu sanoqda ustozimiz haqiqiy maktab yaratgan va har doim ijod va ilm ahliga o'rnak bo'la oladigan, asarlari bugungi kungacha yawab amalda qo'llanib kelinayotgan san'at darg'arimizni keltirganlar.

¹ Ravshan Yunusov "Ustoz-shogird an'analari va mahsus musiqa ta'limi" maqola. "Maqom ijrochiligida ustoz-shogird an'analari" nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. Toshkent-2025.17-bet.



Ovoz talqin etish uslubi, ya'ni kuylash mezonida shakllanayotgan xonanda, nazariy amallar asosida tushunib va bilib kuylashi muhim ahamiyat kasb etadi. Ovoz talqini musiqada eng mukammal ijro taqini hisoblanadi... Ma'lumki, xonandaning kuylashida, umummusiqiy badiiy va fiziologik qoidalarga asoslanishi ko'zda tutiladi. Eng avvalo xonandaning ovoz talqin etishida – “ikki muammoni hal etish ta'lab qilinadi: ijro etish apparatini qurish, ya'ni xonandaning professional ovozini hosil qilish va kuylash malakasini shakllantirish lozim. Ikki masala bir vaqtda bir biriga bog'liq holda amalga oshirilishi kerak. Har qanday hattoki, eng sodda ko'nikmani ham elemental ijro vazifasi bilan bog'lash zarur”. Shundan so'ng xonandada kuylash omili to'g'ri va kasbiy jihatdan mukammal kamol topishi mumkin.² Shuning uchun ham ovozni va kuylashni eng murakkab tarqin deydilar.

Xonandalik haqida ustozim O'zbekiston xalq artisti O'lmas Rasulov quydagilarga amal qilgan holatda bizga dars o'tar edilar. Avvalomabor, darsda albatta tartib intizomga qattiq turar edilar, o'zlari ham besabab dars qoldirish yoki kech qolish holatlari hech kuzatilmay edi, darsga navbat bilan albatta tayyorlangan holatda kirar edik. Shunchalar salobatlari, hurmatlari bor ediki, kelishlari va ketishlarigacha shogirdlar ardog'ida bo'lar edilar. Dars boshidan necha varoq va qaysi kitob o'qiganimizni so'rar edilar. Keyin albatta g'azal yodlashga berrorardilar yod holatda topshirar edik, ijrodan avval Raspevka yani ovoz sozlash mashqlari keyin esa berilgan asarlar doirasida mukammal holatda dars jarayonlari boshlanib ketar edi. Men bundan dars o'tish jarayonini hech qachon unutmayman va ushbu an'anani davom ettirish maqsadidaman.

Hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalar davrida yashamoqdamiz. Ushbu qulaylik va yangilanishlar har bir sohada o'z ta'sirini ko'rsatib turgan bir vaqtda bizning xonandalik san'atimizda ham bir muncha qulayliklar yuzaga keldi va an'anaviy xonandalik o'z ildizlarini saqlagan holda, zamonaviy qulayliklar bilan

² Muhabbat Solixova “An'anaviy xonandalik ansambli” toshkent-2010. 6-bet.



uyg'unlanib rivojlanmoqda. An'anaviy xonandalik ustoz-shogird tizimida qolgan, lekin qulayliklar qushilgan. Onlayn darslar ya'ni video darsliklar orqali maqom yo'llari o'rganilmoqda, Notalar, matnlar va ijro namunalarning raqamli arxivi mavjud, ovoz yozuvlari yordamida taqqoslab o'rganish imkoni paydo bo'ldi.

Agar shashmaqomning bugungi kundagi yutuqlari haqida so'zlaydigan bo'lsak, yaqinda olamshumul bir yangilikni qarshiladik ya'ni musiqa terapiyasi ishlab chiqildi "Maqom kapsulasi".

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti rektori Eldor Shermanov g'oyalari asosida tayyorlandi.

Loyiha rahbari O'zbekiston respublikasi Madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov Axmadovich.

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti navbatdan tashqari 2-sonli kengash qarori asosida 23-avgust 2024-yil.³

"Maqom kapsulasi"ning yo'riqnomasida 22ta noyob asarlar jamlangan bo'lib, har bir asarga birma bir ta'rif berilib, inson ongiga va sog'ligi uchun qanday ijobiy ta'siri haqida batafsil yozilgan.

Ushbu yangi loyihadan ko'rishimiz mumkunki, maqomlarimiz milliy ohanglarimizni hali ochilmagan qirralari, katta katta mavzularda yoritiladigan jihatlari juda ko'p.

Zamonaviy platformalar an'anaviy xonandalikni keng auditoriyaga olib chiqdi deya olamiz. Ijtimoiy tarmoqlar (Telegram, instogram, You Tube) orqali ijrolar tez tarqaladi shu tariqa milliy xonandalikka qiziqish ortmoqda, jonli konsertlar onlayn translatsiya qilinmoqda. Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda an'anaviy xonandalik zamon bilan hamnafas, texnologiyalardan oqilona foydalanuvchi, lekin milliy ruh va ijro an'analarga sodiq qolgan san'at turi sifatida rivojlanmoqda.

³ "Notiq uz" yutub kanali "Maqom kapsulasi" ruhiy quvvat manbai



Xulosa qilib shuni ayta olamizki, xalqimiz qadimiy, san'atsevar, izlanuvchan xalq. Milliylik ro'hi go'zal qadriyatlarimiz, milliy kuy qo'shiqlarimiz xalqimizning qon qoniga singib ketgan. Ayniqsa, milliy maqom sa'natimizga bo'lgan e'tibor va olimlarimiz izlanishlari borki, hali bundan ham katta yutuqlar, kashfiyotlar yangiliklar yaraladi deya olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1- Ravshan Yunusov "Ustoz-shogird an'analari va mahsus musiqa ta'limi" maqola. "Maqom ijrochiligida ustoz-shogird an'analari" nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. Toshkent-2025.17-bet.
- 2- Muhabbat Solixova "An'anaviy xonandalik ansambli" toshkent-2010. 6-bet.
- 3- "Notiq.uz" youtube kanali "Maqom kapsulasi" ruhiy quvvat manbai.